

YANG CONFERENCE.UZ 2023

O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN SAMOLYOT

МОЩНОСТЬ ДВИГАТЕЛЯ 12 л.с. (8,8 кВт)
МАССА ДВИГАТЕЛЯ 77 кг
МАКСИМАЛЬНАЯ СКОРОСТЬ 48 км/ч
ЭКИПАЖ 1 человек

ПЛОЩАДЬ КРЫЛА 47 м²
 ДЛИНА 6,4 м

РАЗМАХ КРЫЛЬЕВ 12,3 м
 ВЫСОТА 2,7 м

ОСНОВНОЙ МАТЕРИАЛ **ДЕРЕВО** (Ель)

МАССА:
 ○ ПУСТОГО 274 кг
 ○ СНАРЯЖЁННОГО 338 кг

Орвилл Райт
Уилбур Райт

TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.
 +998 97 420 88 81
 +998 94 404 00 00
 WWW.TADIQOT.UZ
 WWW.CONFERENCES.UZ

APREL №51

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
9-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-9**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-9**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 51-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 228 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

1. Muxamedova Xolida Baxtiyorovna, Badriyeva Hayitoy Isomiddin qizi TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	7
2. Muxamedova Xolida Baxtiyorovna, Salayeva Gavhar Baxromovna O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISHDA UMUMIY O'RTA TA'LIMNING ROLI.....	9
3. Gulmetova Karima Nigmatovna HISOB-KITOB LARNI NAQD PULSIZ AMALGA OSHIRISHNI RIVOJLANTIRISH.....	11
4. Berdakh Kamiljanov, Anvar Ibragimov LOAN PORTFOLIO OF BANKS AND ITS IMPACT ON THE EFFICIENT OPERATION OF THE BANK.....	13
5. Muslima Asatullayeva Jahongir qizi MAMLAKATIMIZ HUDUDLARIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	15
6. Shirinoy Allakulova Xasan qizi O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING O'RNI.....	18
7. Эшназаров Суннатилло Тўлқин ўғли ДАВЛАТ БЮДЖЕТИ ХАРАЖАТЛАРИ КЕСИМИДА БЮДЖЕТ МАБЛАҒЛАРИНИ НА- ЗОРАТ ҚИЛИШ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	21
8. Saidrasulov Ibrohim Ixtiyor o'g'li O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI VA MUAMMOLARI.....	23
9. Rabbimov Jakhongir Eshboyevich OPERATIONAL RISK MANAGEMENT IN UZBEKISTAN'S DIGITAL BANKING ECOSYSTEM, ITS ISSUES, AND SOLUTIONS.	24
10. Ataxanova Saida Mirzabekovna MUTLAQ USTUNLIK NAZARIYASI.....	26



ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

ТА’ЛИМ ЖАРAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Muxamedova Xolida Baxtiyorovna

Nizomiy nomidagi TDPU

Professional ta’lim fakulteti o’qituvchisi

Badriyeva Hayitoy Isomiddin qizi

Nizomiy nomidagi TDPU

Professional ta’lim fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o’quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanishi va bu usullardan foydalanilganda, bilim olish jarayoni o’quvchi uchun qiziqarli mashg’ulotga aylanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: kasb-hunar, innovatsiya, texnologiya, interfaol, motivatsiya, individual.

Аннотация: В статье указано, что интерактивные методы основаны на активности, свободном и самостоятельном мышлении каждого учащегося, участвующего в образовательном процессе, и при использовании этих методов процесс обучения становится интересным занятием для учащегося.

Ключевые слова: профессия, инновация, технология, интерактив, мотивация, индивидуальный.

Abstract: The article states that interactive methods are based on the activity, free and independent thinking of each student participating in the educational process, and when using these methods, the learning process becomes an interesting activity for the student.

Key words: profession, innovation, technology, interactive, motivation, individual.

Kasb-hunar o’quv yurtlarida yaratilgan sharoit va imkoniyatlar, eng so’nggi innovatsiya namunalarini joriy etish uchun moslashtirilganligi pedagog va o’quvchilarning mustaqil ta’lim olish faoliyatining kuchayishiga ijodiy va ijobiy xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni ijodiy qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan–kunga kuchayib bormoqda. Bunday qiziqishga sabab shu vaqtgacha ta’lim maqsadlari o’quvchilarning faqat tayyor bilimlarni o’zlashtirib olishga qaratilgan bo’lsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalar ular egallayotgan bilimlarni qidirib topishlariga, mustaqil izlanishlariga, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari chiqarishlariga o’rgatadi. Innovatsion texnologiyalar dars jarayonida interfaol muhitni yuzaga keltiradi va ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Interfaol atamasi inglizcha interact-o’zaro ta’sirlanish so’zidan olingan bo’lib, biror faoliyat yoki muammoni o’zaro muloqotda, o’zaro muomalada, o’zaro bahs-munzara, farqlash asnosida, hamjihatlik bilan hal qilish ma’nosini anglatadi.

Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o’quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi. Bu usullardan foydalanilganda, bilim olish jarayoni o’quvchi uchun qiziqarli mashg’ulotga aylanadi.

«**Muammoli vaziyatlar**»- ma’lum holatlar, vaziyatlar hosil qilinib, kichik guruhlarda va individual tarzda muhokama qilish.

Mashg’ulotlarni bu usulda tashkil etish o’quvchi tafakkurini faollashtirish, faol munozarani vujudga keltirish, o’quv faoliyatining ijobiy motivini, turli ijtimoiy munozaraga kirish malakasini, tanqidiy fikrlash ko’nikmasini hosil qilish imkonini beradi.



Darsni muammoli tarzda tashkil etish uchun birinchi galda o‘quvchi bahs-munozara yuritishga, fikrlarini erkin bayon etishga, tanqidiy munosabat bildirishga tayyor bo‘lishi lozim. Buning uchun qo‘yiladigan muammolarga bog‘liq bo‘lgan tushunchalar yuzaga chiqariladi. So‘ngra muammoga aniqlik kiritilib, ma’lum xulosalar chiqariladi. Bu jarayon fikr- mulohazalarda ifodalanadi.

Ta’lim jarayoniga o‘ziga xos texnologik va psixologik jihatdan yondashuv o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, o‘z fikrini erkin bayon etishga undaydi. Shu bilan birga qo‘yiladigan muammoni ijodiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Bunda quyidagi interfaol usullardan foydalanish mumkin.

Interfaol texnologiyalardan yana biri **o‘yinli o‘qitish** texnologiyasidir.

Mehnat va o‘qish bilan bir qatorda o‘yin ham inson faoliyatining eng asosiy turlaridan biridir. O‘yinning strukturasi o‘z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi:

- maqsadlarni qo‘yish.
- rejalashtirish.
- amalga oshirish (maqsadni).
- natijani tahlil qilish.

O‘yinli faoliyatning motivatsiyasi eng ixtiyoriyligi, tanlash imkoniyati va musobaqa elementlarining borligi, ehtiyojlarni qondirish, o‘zini anglash va o‘zini safarbar qilish bilan ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol usullarni ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llay olgan har bir o‘qituvchi ongli, mustaqil va ijodiy faoliyatini ta’minlashga erishadi, o‘quvchilar faolligini oshirib, ta’lim samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R. Ishmuxamedov, A. Abduqodirov, A. Pardayev – Ta’limda innovatsion texnologiyalar – T.: Iste’dod, 2008 y. 180-bet.

2. Якубова Х. С., Мухамедова Х. Б. Трудовое воспитание, как социальное явление в педагогике // Высшее и среднее профессиональное образование России в начале 21-го века: состояние, проблемы, перспективы развития. – 2018. – С. 277-279.

3. Х.Б.Мухамедова, Н.Йўлдошева. Инновационный подход эффективной организации внеклассной деятельности учащихся общеобразовательной школы // Вестник науки и образования. Научно-методический журнал. Российский импакт-фактор. 2020 г. 1 март № 5. – с. 71-73.

4. Х.Б.Мухамедова. Texnologiya fanining uzviylik va uzluksizligini ta’minlash va takomillashtirish omillari // ARES. BAK. Toshkent №3 2021 йил.



**О‘QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO‘NALTIRISHDA UMUMIY O‘RTA
TA‘LIMNING ROLI**

Muxamedova Xolida Baxtiyorovna

Nizomiy nomidagi TDPU

Professional ta‘lim fakulteti o‘qituvchisi

Salayeva Gavhar Baxromovna

Nizomiy nomidagi TDPU

Professional ta‘lim fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda maktab o‘quvchilarining mehnat ta‘limi vazifalari haqida so‘z boradi. Maktab o‘quvchilarida ijodkorlikni rivojlantirish, o‘quvchining kelajakdagi kasb tanlashda o‘z qobiliyati va yo‘nalishini anglashi muhimligi ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar: mehnat, texnologiya, kompyuter, internet, kompetensiyani shakllantirish, vazifalar, kasb.

Аннотация: в статье рассматриваются задачи трудового воспитания школьников Узбекистана. Подчеркивается важность развития творческого начала у школьников и осознания учеником своих способностей и направленности при дальнейшем выборе профессии.

Ключевые слова: труд, технология, компьютер, интернет, формирование компетенций, задачи, профессия.

Abstract: the article deals with the tasks of labor education of schoolchildren in Uzbekistan. The importance of the development of creativity in schoolchildren and the student's awareness of his abilities and orientation in the further choice of profession is emphasized.

Key words: labour, technology, computer, internet, competence formation, tasks, profession.

Mamlakatimizda ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardagi bardavomlik, yurtimizdagi tinchlik va xotirjamlik, xalqimiz farovonligining muttasil oshib borishini ta‘minlash oldimizda turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu boisdan islohotlarning tub mohiyati teran anglaydigan, bu jarayonlarda bevosita ishtirok etadigan har tomonlama yetuk, zamonaviy va kasbiy bilim sirlarini chuqur egallagan barkamol avlodni tarbiyalash mamlakatimizning kelgusida rivojlanishi va taraqqiyot yo‘lidagi asosiy omillardan hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z ma‘ruzalarida “Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko‘pi yoshlar ekanini inobatga olsak, bu boradagi siyosat, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasblarni puxta egallagan barkamol avlodni tarbiyalash ishlari “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun talablari asosida qat‘iy davom ettiriladi”¹ deb ta‘kidlaganlar.

O‘zbekiston Respublikasida uzoq vaqtlar mobaynida texnologiya ta‘limi o‘qituvchilarini kasb tanlashga yo‘llash ishiga tayyorlash, ularning unumli mehnat jarayonidagi faoliyatg tayyorlash, kasb-hunar o‘rgatish, xalq xo‘jaligining turli sohalarida mehnat qilishga o‘rgatishga tayyorlashning turli masalalari bilan ko‘pgina olimlar, tadqiqotchilar shug‘ullandilar.

«Kim bo‘lsam ekan» degan savol har bir yigit va qiz uchun eng asosiy muammolardan biridir. Odamning shundan keyingi butun xayoti ana shu muammoni xal qilishga bog‘liq. Kasbni to‘g‘ri tanlash mehnatda va ijtimoiy faoliyatda eng yuksak ko‘rsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayonida va uning natijalaridan qoniqish esa ijodkorlikni eng ko‘p namoyon etish, eng yaxshi xissiy kayfiyatda bo‘lish, tanho bir kishining ham, umuman jamiyatning ham barcha hayotiy rejalarini birmuncha to‘la amalga oshirish imkonini beradi.

Jamiyat hamma zamonlarda yosh avlodga ijtimoiy va kasbiy tajribani berish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilib keldi. Insoniyat yashashining ilk davrlarida bu tajriba meros bo‘lib qolar, avloddan-avlodga o‘tar edi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan odamga nisbatan qo‘yilgan

¹ Ш.М.Мирзиёев. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболлариига бағишланган мажлисдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи// Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январ, №11



talablar ham oshdi, bu esa turli kasblarda ishlash uchun xodimlarni tanlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish zarurligini taqozo etdi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yoshlarni kasb tanlashga yoʻnaltirish masalalariga katta eʼtibor berildi. Hozirgi vaqtda, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sharoitida maktab oʻquvchilarini kasbga yoʻnaltirishning muhimligi ancha oshdi. Bir tomondan - ishlab chiqarishni murakkablashtirayotgan xilma-xil kasblar va mutaxassisliklarning mavjudligi, ikkinchi tomondan - bir qator barqaror shaxsiy xususiyatlari bilan ajralib turgan odamlarning mavjudligi kasblarni, oʻquv yurtlarini tanlashda, kadrlarni ish oʻrinlariga joylashtirishda va qayta joylashtirishda ana shu omillarni, umuman inson omilini hisobga olishni qatʼiy talab qiladi.

Iqtisodiy islohot va umuman qayta qurish insonni faol ravishda birinchi oʻringa chiqarib qoʻymoqda. Ijtimoiy adolat odam oʻz shaxsiy qobiliyatlarini namoyon etishiga koʻproq eʼtibor berilishini taqozo qilmoqda. Bu vazifani hal qilishda shaxsiy manfaatlar va jamiyatning kadrlarga boʻlgan talab-extiyojlari yoshlarni erkin va ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashning ilmiy asoslangan sistemasi boʻlmish kasb tanlashga yoʻnaltirishga muhim oʻrin ajratilmoqda.

Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash masalasiga yoshlarni har tomonlama va uygʻun rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Bu ish shaxsni gʻoyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnatsevarlik, aqliy, estetik va jismoniy jihatdan kamol toptirish bilan, yaʼni butun taʼlim tarbiya jarayoni, uning butun kompleksi bilan uzviy birlikda va hamjihatlikda amalga oshiriladi.

Maktabda kasbga yoʻnaltirish ishi zarur natijalarni berishi uchun uzluksiz jarayon boʻlishi va oʻzaro bogʻlangan bir qancha bosqichlardan iborat boʻlishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati

1. Концепция развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года. Указ Президента РУЗ от 29.04.2019 № УП-5712 // Национальная база данных законодательства, 29.04.2019 г., № 06/19/5712/3034

2. Якубова Х. С., Мухамедова Х. Б. Трудовое воспитание, как социальное явление в педагогике // Высшее и среднее профессиональное образование России в начале 21-го века: состояние, проблемы, перспективы развития. – 2018. – С. 277-279.

3. Х.Б.Мухамедова, Н.Йўлдошева. Инновационный подход эффективной организации внеклассной деятельности учащихся общеобразовательной школы // Вестник науки и образования. Научно-методический журнал. Российский импакт-фактор. 2020 г. 1 март № 5. – с. 71-73.

4. Х.Б.Мухамедова. Texnologiya fanining uzviylik va uzluksizligini taʼminlash va takomillashtirish omillari // ARES. BAK. Toshkent №3 2021 йил.



HISOB-KITOBLARNI NAQD PULSIZ AMALGA OSHIRISHNI RIVOJLANTIRISH

Gulmetova Karima Nigmatovna
Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani
1-sonli kasb hunar maktabi
ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar va tashkilotlarning tovar ayirboshlash, xizmat ko'rsatish va tovarsiz operatsiyalarni bajarishda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tizimi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, tovar, naqd pul, hisob-kitob, korxonalar, bank, to'lov.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri pul aylanishini to'g'ri va aniq tashkil qilishdan iborat, chunki bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlarining holati va taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Korxonalar va tashkilotlar o'zlarining xo'jalik faoliyatlari jarayonida doimo bir-biri bilan aloqada bo'ladilar. Ular o'rtasida tovar ayirboshlash jarayoni pul va pulli hisob-kitoblar yordamida amalga oshiriladi. Tovarlarni ayirboshlashning o'zi esa pul aylanishining moddiy asosi bo'lib hisoblanadi, uning asosida boshqa pulli munosabatlar vujudga keladi (soliq organlari, pensiya fondi, bank muassasalari va boshqalar).

Naqd pulsiz hisob-kitoblar deganda, korxonalar va tashkilotlarning tovar ayirboshlash, xizmat ko'rsatish va tovarsiz operatsiyalar bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan talab va majburiyatlarni naqd pul ishlatmasdan pul mablag'larini bir hisobvaraqqadan ikkinchi hisobvaraqqaga o'tkazish orqali amalga oshirilishi tushuniladi. Naqd pulsiz pul aylanishi yalpi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'ladigan munosabatlarini o'zida aks ettirishiga ko'ra ikki qismga bo'linadi.

Naqd pul ishtiroksiz, mablag'larni bir hisobdan ikkinchi hisobga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladigan hisoblar *naqd pulsiz hisob-kitoblar* deyiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblar «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida»gi Nizomga asosan olib boriladi. Bu Nizom O'zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida»gi Qonun va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining boshqa meyoriy hujjatlariga asosan ishlab chiqilgan. 2013-yil 3-iyundagi 2465-sonli Nizomga asosan hisob-kitoblarni olib borishda oldin mavjud bo'lgan ba'zi bir cheklashlar olib tashlandi va korxonalariga ular qaysi mulk shakliga asoslanishidan qat'i nazar, hisob-kitob shakllarini tanlash va olib borishda erkinliklar berilgan.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar quyidagi elementlardan tashkil topgan. Bular:

- naqd-pulsiz hisob-kitoblarni olib borish va amalga oshirishning asosiy tamoyillari;
- hisob-kitob shakllari;
- hisob-kitob hujjatlari;
- to'lov turi;
- navbati, manbalari;
- hisob-kitob qatnashchilari, bankning huquq va majburiyatlari va boshqalar.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar o'zining iqtisodiy mohiyatiga qarab, tovarlarni sotish jarayoni bilan bog'liq hisob-kitoblar va notovar xarakterdagi hisob-kitoblarga bo'linadi. Tovarlarni sotish jarayonidagi hisoblar moddiy boyliklar aylanishi bilan bog'liq bo'lib ular, asosan, korxonalar, tashkilotlar o'rtasida olib boriladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar hisob hujjatlari asosida olib boriladi. Shartnomaga asosan mol yetkazib beruvchi o'z vaqtida tovarning pulini (ekvivalenti) olishi, mol sotuvchi pulni o'z vaqtida o'tkazishi zarur.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- korxonalar, tashkilotlar o'z pul mablag'larini (o'z mablag'larini va qarz mablag'lar) bankda saqlashlari zarur;
- barcha naqd pulsiz hisob-kitoblar bank orqali o'tishi kerak;
- xo'jalik organlari hisob-kitoblar shakllarini erkin tanlashlari va uni shartnoma orqali mustahkamlab qo'yishlari mumkin;
- xo'jalik organlarining hisob-kitoblar bo'yicha shartnomaviy munosabatlariga bank aralashmasligi kerak;



- tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlar to'lovchining roziligi bilan amalga oshiriladi.
- to'lovlar xo'jalik organlarining hisobvarag'idagi mablag'lari hisobidan, ba'zida (agar korxonada kredit olishi mumkin bo'lsa) bank krediti hisobidan amalga oshirilishi mumkin;
- to'lov qoidasi mol yetkazib beruvchi va mol sotib oluvchi tomonidan mol yetkazib berish to'g'risidagi shartnoma asosida kelishib olinadi;
- mol yetkazib beruvchining hisob varag'iga pul mablag'larini o'tkazish shu mablag'larni mol sotib oluvchining hisobvaragidan o'chirilganidan keyin amalga oshiriladi (cheklar bilan hisob-kitob qilish bundan mustasno);

Korxonada tashkilotlarga pul mablag'larini saqlash va hisob-kitoblarni olib borish, kassa operatsiyalarini amalga oshirish uchun hisob-kitob (talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvaragi) ochiladi.

Hisob-kitob varaqlarini ochish uchun korxonada quyidagi hujjatlarni bankka taqdim qilishi zarur.

- a) hisobvaraqa ochish to'g'risida ariza;
- b) xo'jalik, tashkilot tashkil qilinib, ro'yxatga olinganligini tasdiqlovchi hujjat;
- d) huquqiy shaxs Nizomining notarial tartibda tasdiqlangan, huquqiy shaxs tomonidan imzolangan nusxasi;
- e) imzolar namunalari, muhr bosilgan va notarial tartibda tasdiqlangan varaqcha;
- f) boshqa ta'xis hujjatlari.

Korxonada rahbarining pasporti (shaxsini tasdiqlovchi hujjat) ham bankka taqdim qilinadi. Hisobvaraqa ochish uchun yuqoridagi asosiy hujjatlardan tashqari zarur bo'lganda boshqa qo'shimcha hujjatlar ham bankka berilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni.
3. K.N. Navro'zova, O.A. Ortiqov Naqd pulsiz hisob-kitoblarni va to'lov tizimi Toshkent. 2014
4. O'zbekiston Respublikasida Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish haqida»gi 2465-sonli Nizom.



LOAN PORTFOLIO OF BANKS AND ITS IMPACT ON THE EFFICIENT OPERATION OF THE BANK

Berdakh Kamiljanov

Master student of State
Finance and International Finance of
Karakalpak State University

Anvar Ibragimov

3rd year student of Finance and financial technologies
Karakalpak State University

ANNOTATION: Today, issues of increasing the efficiency of credit portfolio formation and management of commercial banks are urgent. This article shows ways to effectively manage the loan portfolio in the banking system

KEY WORDS: banking system, credit portfolio, loan, commercial banks, lending activities.

The modern economic environment requires the creation of a mechanism for effectively managing the credit portfolio of commercial banks, which is compatible with international banking practice, on the basis of increasing the efficiency of the banking work of our country, preventing existing problems in the activity of commercial banks.

Loan portfolio - a set of loans issued by the bank, which, as of a certain date, have not yet been repaid, that is, are in the use of borrowers. By issuing loans to borrowers, the bank thereby forms its loan portfolio.

The loan portfolio of the bank consists of balances on balance accounts for short-term, long-term and overdue loans, and this indicator reflects the total debt on active credit operations.

The issue of development and strengthening of the banking system is always in the center of our attention, and it gives its positive results. However, it is necessary to deepen and expand the work in this regard. The reason is that banks are the blood vessels that feed our entire economy, the financial and economic stability of our country largely depends on their efficient operation.

The assets of a commercial bank include cash in the cash register and other payment documents, accounts with the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, mandatory reserve accounts with the Central Bank, representative accounts with other banks, funds in accounts with other banks, traded securities, Purchased receivables (factoring), short-term loans, long-term loans, leases, reserves for possible losses on loans and leases, investments (including reserves), loans in litigation, unfinished constructions, bank's buildings, the right to lease and improve facilities, equipment for making payments with payment cards and fixed assets under operating lease, vehicles, furniture, fixtures and equipment, intangible assets, fixed assets in warehouses, currency position accounts, government accounts, consists of other assets (including money transfer account).

In the table below, we consider the size of the credit portfolio of the banking system by region in Uzbekistan (Table 1).

Table 1¹

Information on the credit portfolio of the banking system by regions

Bln.sum

№	Name of the area	01.06.2021	01.06.2022	Change	
				Amount	In percent
Total		237 980	297 778	59 798	25%

1 Compiled based on the information of the official website cbu.uz



1	Republic of Karakalpakstan	6 834	8 358	1 524	22%
2	Andijan region	10 107	12 951	2 844	28%
3	Bukhara region	10 222	13 626	3 404	33%
4	Jizzakh region	8 047	10 828	2 781	35%
5	Kashkadarya region	9 439	12 032	2 593	27%
6	Navoi region	7 030	9 643	2 613	37%
7	Namangan region	8 178	11 132	2 954	36%
8	Samarkand region	12 705	15 785	3 080	24%
9	Surkhandarya region	9 388	12 542	3 154	34%
10	Syrdarya region	6 194	9 107	2 913	47%
11	Tashkent city	117 053	139 553	22 499	19%
12	Tashkent region	14 823	18 090	3 267	22%
13	Fergana region	10 466	13 834	3 368	32%
14	Khorezm region	7 493	10 298	2 805	37%

From the data in the table, we can see that the total loan portfolio for 2022 was 297,778 billion sums in 2021 and increased by 25% compared to the previous year. At the same time, the amount of the loan portfolio in Sirdarya region increased significantly compared to the previous year and amounted to 9,107 billion. In Tashkent city, we can see a relatively low level of growth.

In conclusion, in order for the outcome of this process to be successful, a deep analysis of the managerial aspects inherent in the banking sector is required, followed by the application in practice of the identified trends for forecasting and strategic planning - in the field of lending activities of banks; The successful operation of any bank is possible subject to its financial stability and the efficiency of operations performed with the funds of shareholders and other customers of the bank. A bank's high-quality loan portfolio not only provides an optimal level of interest yield with an acceptable level of liquidity and an acceptable level of credit risk, but is also the main factor in the financial stability of the bank and the efficiency of its lending operations.



MAMLAKATIMIZ HUDUDLARIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Muslima Asatullayeva Jahongir qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,
Turizm fakulteti talabasi talabasi
Elektron pochta manzili:
muslimaxon1997@gmail.com

Annotatsiya: maqolada mamlakatimiz hududlarida, xususan, Namangan, SAMARQAND, Jizzax, Buxoro, Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlariga qisqagina tizoh berilgan.

Kalit soʻzlar: turizm, turistik hududlar, turistik xizmatlar, turistik zonalar, pandemiya, turistik marshrutlar.

Turizm Respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xoʻjaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori oʻzining munosib oʻrniga ega boʻlishi uchun yetarlicha imkoniyatga ega. Ammo uzoq yillar bu imkoniyatdan toʻliq va samarali foydalanilmadi va hozir ham mamlakatimizga xorijiy turistlarning tashrifini koʻpaytirish, qiziqishini oshirish, tashrif buyurgan turistlarga sifatli xizmat koʻrsatish dolzarb masalalardan biridir. Oʻtgan davr mobaynida respublikamizning koʻpgina mintaqalaridagi tarixiy, diniy obidalar, buyuk siymolar qabrlari, dahmalari, masjid - adrasalarini qaytadan tiklash va taʼmirlash ishlari amalga oshirildi. Buning natijasida turistik resurslarning soni yanada koʻpaymoqda va ularning ahvoli ancha yaxshilanib bormoqda. Yana shuni aytish mumkinki, Respublikamizga turistlar oqimini koʻpaytirish maqsadida oʻtgan qisqa davr mobaynida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, xorijiy davlatlardan kelayotgan turistlarga mamlakatimizda 30 kungacha vizasiz boʻlish imkoniyati yaratildi va shu bilan birga 39 mamlakat fuqarolariga viza berish tartibi ham bir muncha soddalashtirildi. Oʻzbekiston sharoitida turizmni hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajada rivojlantirish uchun yetarlicha turistik resurslarning mavjudligini hisobga oladigan boʻlsak, mazkur sohaning iqtisodiyot rivojlanishi uchun gʻoyat muhim ahamiyatga ega ekanligini koʻrish mumkin. Ayni vaqtda, Respublikamizda turizmning rivojlanishi nafaqat amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarga, balki mavjud turistik resurslardan samarali foydalanish darajasiga ham bevosita bogʻliqdir. Turistik-rekreatsiya sohasi rivojlangan davlatlar tajribasiga eʼtibor beradigan boʻlsak, mamlakatga sayyohlarning qanchalik koʻp tashrifi va ular keltirgan daromad miqdori shu yerda yaratilgan xizmatlar narxiga emas, balki uning sifatiga, rang-barangligiga bogʻliq ekanligini koʻramiz.

Bugungi kunda turizmni shunchaki rivojlantirish emas, balki barcha hududlardagi imkoniyatlardan samarali foydalangan holda rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Shu maqsadda turizmni aynan hududlarda rivojlantirishga nafaqat Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi, shu bilan birgalikda Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi, Transport vazirligi, Energetika vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi, Uy-joy va kommunal xizmat koʻrsatish vazirliklari ham jalb qilinsa maqsadga muvofiq boʻladi.

Turistik salohiyatga ega boʻlgan, ammo hozircha undan unchalik foydalmasdan kelinayotgan hududlarda bir qancha turistik ob'ektlar ishga tushiriladi. Mamlakatimizda mazkur soha rivojlanishi hududiy jihatdan turlicha hisoblanadi. Jumladan, Namangan viloyatining Chust tumanini turizm markaziga aylantiriladi. Buning uchun “Mavlono Lutfiy” istirohat bogʻida xorijiy va mahalliy aholining turli bosh kiyimlarini oʻzida jamlagan “Doʻppi muzeyi” tashkil qilish va Chust doʻppilarining savdosi yoʻlga qoʻyiladi. “Bibi ona” ziyoratgohi hamda “Varzik” mahallasidagi “Teshiktosh” va kuzatuv maydoniga ega qoyatoshlarga turlar tashkil qilinadi. Doʻppidoʻzlar va pichoqchi ustalar mahallalarini tumanning tashrif qogʻozi sifatida foydalanish ham koʻzda tutilgan. Ushbu tadbirlar Chust tumanining doʻppidoʻzlik maktabi sanʼatini YuNESKOning nomoddiy madaniy meroslar ob'ektlar roʻyxatiga kiritish uchun ham asos boʻladi. Namanganda barpo etilayotgan “Afsonalar vodiysi” bogʻini viloyatning “chorlovchi nuqtasi” sifatida foydalanish orqali, viloyatga tashrif buyurgan mehmonlarni hudud boʻylab sayohatlarga jalb etish boʻyicha tegishli tadbirlar amalga oshirish masalasi ham koʻzda tutilgan.

Turizmni rivojlantirish masalasiga asosan tarixiy obidalardan foydalanish sifatida qaralib



kelgan bo'lsa, endilikda sohaga munosabat ham o'zgardi. Xususan, Jizzax viloyatida Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi hududida turistik zonani yaratish va rivojlantirish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Aynan Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi hududida yangi “Orom qirg'og'i” (“Leisure Coast”) turistik zonasi tashkil qilinib, unda suvda dam olishning bir qancha turlari va plyaj turizmini rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. 2021 yil yoz mavsumida ushbu hudud to'liq quvvat bilan dam oluvchilarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Biroq ushbu hududga borish masalasida biroz muammolar mavjud. Bularni inobatga olib, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimiga yo'lovchilarni tashish uchun temir yo'llarni yotqizish qiymatining dastlabki hisob-kitoblarini qilish va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, doimiy avtobus qatnovlarini yo'lga qo'yish masalalari bevosita davlatimiz rahbarining nazoratida turibdi. Ushbu hududga tadbirkorlik sub'ektlarini jalb qilgan holda turizm va unga yondosh infratuzilmani rivojlantirish masalasiga ham yetarli darajada e'tibor qaratilgan.

Jizzax viloyatida yana bir muhim ob'ekt Zomin tumanida umummavsumiy, qishki va yozgi dam olish maskanlari hisoblanadi. Ushbu hududga mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilgan holda umummavsumiy, qishki va yozgi dam olish maskanlarini tashkil etish lozimligi bo'yicha ham keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizning har bir hududida katta imkoniyatlar mavjud. Bulardan biri Navoiy va Buxoro viloyatlariga qarashli To'dako'l ko'li hududi hisoblanadi. Ushbu hududda turistik hokimliklari rivojlantirish bilan birgalikda To'dako'l ko'li hududiy turistik zonani tashkil etish va rivojlantirish masalasi ham o'ta dolzarb hisoblanadi. Ushbu hududda suvda dam olish turlari va plyaj turizmini rivojlantirish masalasi qo'yilgan. Shu bilan birga, temir yo'l stansiyalarini qurish maqsadga muvofiqligini o'rganish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, ko'lga yo'lovchilarni tashish uchun doimiy avtobus qatnovlarini yo'lga qo'yish, tadbirkorlik sub'ektlarini jalb qilgan holda turizm va unga yondosh infratuzilmani rivojlantirishni masalasi ham izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Barcha hududlarda fuqarolarning faol dam olishini tashkil etish (shaharda yurish, terrenkur, trekking va xayking), kasallanish darajasini, shu jumladan, yurak xastaliklarini kamaytirishni nazarda tutuvchi “Piyoda turistik marshrut”lar ham ishlab chiqilishi lozim. Bu bilan aholida nafaqat dam olish paytida, balki keyin ham piyoda yurish ko'nikmasini shakllantirish-ga ko'maklashiladi.

Yana bir jihat, xorijiy mamlakatlar fuqarolariga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarni tizimlashtirish va turlarini kengaytirishni nazarda tutuvchi “O'zbekiston – umidli va shifobaxsh zamin” (“Uzbekistan – hope and healing land”) tibbiy turizm dasturini ham rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ularga ushbu xizmatlarni ko'rsatish bilan shu joyda turib xizmatlar eksportini ko'paytirishga erishilishi nafaqat mamlakat iqtisodiyoti, balki aholining ijtimoiy hayotini yaxshilashda ham muhim ahamiyatga ega. Samarqandni aziz va muqaddas avliyolar, buyuk insonlar abadiy qo'nim topgan joy sifatida e'zozlashadi. Bu hududda 148 dan ortiq tarixiy-arxitektura yodgorliklari aniqlangan. Shu sababli Samarqandni “Ochiq osmon ostidagi muzey” deb atashadi. Bundan tashqari Samarqandning so'lim bog'lari, musaffo havosi, shifobaxsh suvlari, maftunkor tabiati qadimdan kishilarni o'ziga jalb qilib kelgan. Hududning Urgut, Ohalik, G'o'bdin tog'lari bo'ylab sayohat qilgan turistlar tabiatning 75 mo'jizalariga yana bir bor amin bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyuldagi 433-son Qarorining 8-ilovasiga muvofiq Fuqorolar yig'iniga “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog'i” va “Turizm ovuli” maqomini berish tartibi to'g'risidagi Nizom” asosida Samarqand viloyatida bir qancha amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Respublikada birinchi bo'lib viloyatimizda “Konigil” mahalla fuqorolar yig'iniga “Konigil” turizm qishlog'i Sertifikati topshirildi.

Samarqand viloyatidagi "Konigil" mahallasi "Turizm qishlog'i" maqomiga ega bo'ldi. Ushbu qishloqda milliy an'alarimiz, qadriyatlarimiz, qadimiy hunarmandchilik, kashtachilik an'analari ham qayta tiklanib mahalliy va xorijiy turistlarga namoyish etiladi.

Yangi tashkil qilingan turistik hududlar va zonalarda xorijiy oshxona yoki alohida yo'nalish bo'yicha ixtisoslashgan tematik ovqatlanish shoxobchalari, ovqat va oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish, shuningdek, suvenir mahsulotlarini yetkazib berish bo'yicha xizmatlarni tashkil etish yuzasidan loyiha tashabbuskorlariga grantlar ajratish ko'zda tutilgan. Shu yo'l bilan xorijiy turistlarni ham mamlakatimizning qishloq hududlariga ham jalb qilish imkoniyati tug'iladi.

Turizm sohasida faol bo'lgan gid va turoperatorlarga yangi turizm mahsulotlari va yo'nalishlarini ishlab chiqqanligi va turistik mahsulotlarimizni xorijiy turistlarga targ'ib qilganligi uchun endilikda ularga ham grantlar ajratilishi ko'zda tutilgan. Bulardan tashqari turizm sohasi sub'ektlarining



xarajatlarining bir qismi subsidiyalanadigan bo‘ldi. Ayniqsa joylashtirish bo‘yicha xizmatlar (mehmonxona xizmatlari) narxining 10 foizi miqdorida joylashtirish vositalarini subsidiyalash ham ko‘zda tutilgan. Yana bitta sohaga berilgan imtiyoz – turoperatorlar va turagentlarga O‘zbekiston Respublikasiga olib kelingan va xizmat ko‘rsatilgan har bir xorijiy turist uchun rag‘batlantiruvchi subsidiyalar ajratiladi. Havo va temir yo‘l chiptalari uchun turoperatorlarning xarajatlarini qisman subsidiyalanadi. Shuningdek, mehmonxonalarning toifa olish va uni ko‘tarish uchun renovasiya, rekonstruksiya hamda moddiy-texnik bazani mustahkamlash bo‘yicha xarajatlarini qoplash, turizm maqsadida yo‘lovchi tashuvchi yangi dor yo‘llarini qurish va jihozlash uchun investorlar xarajatlarini qoplashga mablag‘ ajratish masalalari ham markazlashgan holda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida sayohat davomida xorijiy turistlar koronavirus (COVID-19) infeksiyasini yuqtirib olgan taqdirda, ularga kompensasiya to‘lovlarini to‘lab berish, “O‘zbekiston. Xavfsiz sayohat KAFOLATLANGAN” (“Uzbekistan. Safe travel GUARANTEED”) tizimi doirasida ixtiyoriy sertifikatlash, shuningdek, sertifikatlash uchun to‘lovlarni amalga oshirish, ushbu tizimning xavfsiz ob'ektlari reestrini yuritish kabi masalalar ham davlatimiz tomonidan rag‘batlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PF-5781-son 13.08.2019 O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida (<https://lex.uz/docs/4474527>)
2. Troy Waugh. Marketing strategies for Accounting, Law, Consulting and Professional Services Firms, M. Kubr & M. Kempbell, Inc.2005. – 266 p. 2.
3. <https://telegra.ph/SAMARQANDDA-YANGI-TURISTIK-QISHLOQ-TASHKIL-ETILADI-02-11>
4. Sindorov Sh.E. O‘zbekiston respublikasining tadbirkorlik faoliyatida innovatsion jarayonlardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmi. Nom.disser. 2010.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING O'RNI

Shirinoy Allakulova Xasan qizi.

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti turizm fakulteti talabasi
Electron pochta manzili: shirinallakulova12@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikamiz viloyat va shaharlarida ziyorat turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari va innovatsion jarayonlarning o'sishi.

Kalit so'zlar: GPS va GIS ma'lumotlaridan ziyorat turizmida qo'llash, Turizmni mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni, turistik xizmatlar, turistik zonalar, turistik hududlar.

Hozirgi vaqtda innovatsion jarayonlarning o'sishi ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi zaruriy elementi hamda raqobat ustunligini ta'minlovchi asosiy resurs sifatida ko'rilmoqda. Turistik korxonalarining turizm bilan bog'liq faoliyatining turli sohalaridagi yangi texnologik o'zgarishlarga o'z vaqtida e'tibor qaratishi, ishlashning yangi uslublarini yaratishga va faoliyat natijalarini takomillashtirishga qodirligi korxonalar yashab qolishining zaruriy sharti deb tan olingan. Innovatsiyalarni joriy etish zarurati raqobat kurashi hamda bozorning boshqa bir qator talablarini ham rag'batlantiradi. Ularadan foydalanish mumkinligi, shuningdek, chet el va mahalliy sayohlarning talablari va istaklari, insonlarning ruhiyati o'zgarishlari sababli, demografik, iqtisodiy va ijtimoiy tartib o'zgarishi bilan ham bog'liqligini inobatga olish. Turizmga innovatsiyalarni joriy etishda mamlakatimizning iqtisodiy vaziyati, aholining ijtimoiy holati, milliy qonunchilik hamda hukumatlararo va xalqaro bitimlar ta'sir qiladi. Shu sababli har bir mamlakatdagi turistik faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda paydo bo'lishining asosi va sabablari turlichadir.

Misol uchun: Aholining boshqa mintaqalardagi turmush tarzi bilan tanishishga va yangi bilimlar olishga, dam olish va sayohat qilishga ehtiyojlarining o'sib borayotganligi. Sayohatlarning ko'pincha milliy va an'anaviy yo'nalishlarining (destinatsiyalar) boyitilishi.

Hordiq chiqarishning tabiiy va madaniy imkoniyatlari, o'ziga xos mahsulotlari va maxsus turistik xizmatlariga ega bo'lish lozim.

Eng talabchan sayohlarning ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun sayohat va hordiqning qiziqarli sharoitlarini uyg'un birlashtirish. Insonga kayfiyat beradigan qiziqarli tadbirlar (hordiq chiqarishning tabiiy va madaniy imkoniyatlari, o'ziga xosliklari, o'ziga xos mahsulotlari va maxsus turistik xizmatlariga ega bo'lish.

Taklif iqtisodiyotidan talab iqtisodiyotiga o'tish. Turistik faoliyati bu faqat sayohatlarni tashkil etish bo'yicha xizmatlar taqdim etishgina emas, balki davlatning, uning iqtisodiyoti ko'pgina sohalarining daromad manbai ham hisoblanadi. Ularning daromadlari an'anaviy turizm sohalarini bo'lgan, mehmonxonalar, restoranlar, transportdan tushuvchi kirimlardan ancha ortiq bo'lmoqda.

Turizm sohasidagi siyosat tamoyillarini, ularni amalga oshirish dasturlarini, faoliyat natijalarini tadqiq etish va nazorat qilish mexanizmlarini statistikani tashkil etish, belgilash hamda ishlab chiqish.

Turizm uchun qulay sharoitni yaratish, turli firmalar, tashkilotlar va jamiyatlar faoliyatini tashkillashtirish.

Turizm va marketingni innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlash, mamlakatning jozibali qiyofasini yaratish. Turizm sohasiga innovatsiyalarning kirib kelishi bilan kadrlar malakasini oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, xorij tajribasini kuzatish, zamonaviy ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda mamlakat turizm jozibadorligini oshirish muhim masalaga aylandi. Mijozlar ehtiyojidan kelib chiqqan holda raqobatbardosh turistik xizmatlar taklif qilish imkonini berdi. Shunday ekan, turizm sohasida innovatsion faoliyat mavjud tur mahsulotlarni o'zgartirish, yangilarini yaratish, xizmat ko'rsatishni takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni tashkiliy-boshqaruv faoliyatiga yo'naltirishga zamin yaratadi. Ziyorat turizmi rivojida ham innovatsion texnologiyalardan ancha unumli foydalanilmoqda. Shularni inobatga olgan holda quyidagilarni taklif qilaman.

1. Turizm sohasiga oid ilovalarni takomillashtirish va unda sayohat joylashuvi, tarixiy obidalar, maqbaralar, muzeylar, teatr, ko'rgazma zallari, ovqatlanish, ko'ngil ochar istirohat obyektlarini kiritish.



2. Tarixiy binolar joylashgan hududda zamonaviy binolar qurib unda hunarmandchilik buyumlari, ko'zalar, gilamchilik, kulolchilik, o'yakorlik, miskarlik buyumlari, tasviriy san'at, musiqa asboblari, haukaltaroshlik namunalari shuningdek, O'zbekistonda joylashgan barcha tarixiy obidalar, muzey, teatr, parklarning rasmi va tarixi haqida rasm ostida tarixi bilan berish.

3. Ziyoratgohlarni eskilik bo'yog'ini yo'qotmagan holda rekonstruksiya qilish orqali tarixiy va madaniy meroslarimizni avlodlarga yetkazish uchun chora-tadbirlar o'ylab topish.

4. Ziyorat turizmiga oid yangi mobil ilovalar ishlab chiqish va mavjudlarini yangilash va offline rejimda ham foydalanish imkoniyatini yaratish;

5. Ziyoratgohlar haqida audio ma'lumotlarni internet tarmoqlari, turistik web-sahifalarda qoldirish.

6. Bu dasturlarni turli xil tillarda: ingliz, rus, fransuz, xitoy, koreys, o'zbek, nemis tillarida berish va offline rejimda ham foydalanish imkoniyati mavjud bo'lishi.

7. Shuningdek har bitta ziyorat turizmi potensialiga ega bo'lgan hududlarda virtual tur tashkil etish, web-saytlarda ma'lumotlarni to'liq o'zgartirishsiz qiziqarli ko'rinishda tarqatish,

8. Tabiatga sayohat turizmini tashkillashtirish.

9. GPS va GIS ma'lumotlaridan ziyorat turizmida qo'llash.

10. Agro va eko turizm turlarini ham shakillantirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, dunyo ahlini o'zaro do'st va birodar bo'lib, totuvlik va hamkorlikda yashashga da'vat etadigan ramazon hayiti inson qadrini ulug'lashning yorqin namunasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Shak-shubhasiz, biz inson qadrini uning diniy sohadagi huquq va manfaatlari bilan uzviy bog'liq holda ko'ramiz. Shuning uchun so'nggi yillarda mamlakatimizda diniy qadriyatlarimizni tiklash, bebaho ilmiy-ma'naviy merosimizni o'rganish va targ'ib etish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda davlatimiz tomonidan xalqimizning bunday kunlarni sarmazmun o'tkazishi uchun barcha sharoitlar yaratilayotganligini ta'kidlash zarur. Jumladan, fuqarolarning rasmiy sanalarni nishonlash davrida to'liq dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" dasturi doirasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish uchun dam olish va bayram kunlaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida qo'shimcha dam olish kunlarining belgilanishi buning yorqin isbotidir.

O'zbekistonda hozirgi davrda turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, yangi ish o'rinlari yaratish, kadrlar salohiyatini oshirish, pirovardida, turizmni iqtisodiyotning lokomotiv sohaslaridan biriga aylantirish masalasi bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Mamlakatimizda qabul qilingan "2019 – 2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi"da 2019 – 2025 yillarda turizm sohasini rivojlantirishda turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish, ichki turizmni rivojlantirish uchun aholining keng qatlamlarini jalb qilish, ichki turizmining ommaviyligini qayta tiklash, turizm xizmatlarini ishlab chiqish hamda mavsumiy notekislik oqibatlarini yumshatishda keng miqyosli ta'sirdan foydalanish maqsadida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" Dasturining amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish vazifasi qo'yilgan.

Bilamizki, mamlakatimiz ziyorat turizmi uchun qulay manzil hisoblanadi. Islom olamida mashhur ko'plab ulamolar yurtimizda yashab ijod qilgan. Islom dunyosining eng qimmatbaho Qur'oni karim namunalari biri – Xalifa Usmon Qur'on kitobi saqlanuvchi Hazrati Imom majmuasi, buyuk islom imomi Mahammad Al-Buxoriy maqbarasi, Naqshbandiya tariqati izdoshlari maqbalari va shu kabi ko'plab boshqa diniy markazlar mavjud. Mamlakatimiz hududida 7,4 ming madaniy meros ob'ektlari bor bo'lib, ulardan mingdan ortig'i ziyorat ob'ektlari hisoblanadi, 209 tasi 4 ta shahar - Xiva, Buxoro, Shahrisabz, Samarqand shaharlari hududida joylashgan bo'lib, YuNESKO butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Bu mamlakatimizning ziyorat turizmi imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zarurligini ifodalaydi. Shu bilan birga, mamlakatimizda boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar uchun ham aziz bo'lgan tarixiy qadamjolar bor. O'zbekiston hududida turli konfessiyalar – islom, xristianlik, iudaizm, buddizm, rivojlanishi bilan bog'liq 500 dan ortiq yodgorliklar va tarixiy joylar mavjud. Bu esa ziyorat turizmni rivojlantirish uchun jiddiy asos va imkoniyatdir.

Ziyorat turizmi ma'naviy qadriyatlarning rivojlanishiga olib keladi, u nafaqat jismoniy ma'nodagi rekreatsion omil, balki shu bilan birga, shaxsning insoniy qadr-qimmatini rivojlanishi omili sifatida hisobga olinishi lozim. Shuning uchun ham ziyorat turizmining ahamiyati va ko'lami katta, u bundan keyin ham eng rivojlangan turizm segmentlaridan biri bo'lib qoladi.



Keyingi yillarda O‘zbekistonda ziyorat turizmini umumiy turizmning bir tarmog‘i sifatida rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, infratuzilmasini shakllantirish, sohani o‘rta maxsus va oliy malakali kadrlar bilan ta‘minlash bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Islom dinimiz rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimiz maqbaralari obod qilinib, u yerlarda masjid va madrasalar, ziyoratchilar uchun xos mehmonxonalar qurilib ular atrofida bog‘-rog‘lar barpo etildi. Bu yo‘nalishga oid adabiyotlar chop etilib, xujjatli va badiiy kinofilmlar yaratilmoqda, ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, dissertatsiyalar himoya qilinmoqda.

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida ziyorat turizmi markazlaridan biri sifatida e‘tirof etilishi umumiy ma‘noda mamlakatda sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish va turistlar oqimini sezilarli darajada oshirishga turtki beradi. Ziyorat turizmi uchun diniy qadamjolarining o‘zi yetarli emas. Sayyohlarni jalb qilish uchun targ‘ibot ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilishi, qulay viza tartibi, aeroport, mehmonxonalarda ibodat amallarini bajarish uchun shart-sharoit bo‘lishi kerak.

Qolaversa yurtimizga chet el sayohlarining ham tashriflari ortib bormoqda va yurtimizning turistik salohiyatini shuningdek ziyorat turizmini dunyoga targ‘iboti kuchaymoqda. Joriy yilning 13-fevralida yurtimizga Turkiyaning yetakchi ommaviy axborot vositalari vakillari hamda qator taniqli inflyuenserlari O‘zbekiston bo‘ylab sayohatga kelishgan edi. Mazkur turdan ko‘zlangan maqsad O‘zbekistonning imijini keng targ‘ib qilish hamda ziyorat turizmini yana-da rivojlantirishdan iborat. Sayohat davomida inflyuenserlar guruhi yurtimizning muqaddas qadamjolarida ziyorat amallarini bajo etishadi. Shu bilan birga, mamlakatimiz madaniyati, qadriyatlarini hamda turizm tarmoqlari xususiyatlari bilan yaqindan tanishtiriladi.

Ziyorat turizmini rivojlantirish uchun zarur infratuzilma ob‘ektlari – mehmonxonalar tizimini rivojlantirish, mehmonxonalar, aeroport va vokzallarda mehmonlarni kutish zallarining ziyorat turizmi standartlariga javob berishi masalalarini hal etish zarur. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish omillaridan bo‘lgan axborot resurslarini jamlash, mamlakatda mavjud ma‘naviy va moddiy boyliklar tavsifini umumlashtirish, ziyorat turizmi bo‘yicha to‘liq ma‘lumot beruvchi integratsion elektron platformani yaratish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Ziyorat turizmini rivojlantirish uchun zarur infratuzilma ob‘ektlari – mehmonxonalar tizimini rivojlantirish, mehmonxonalar, aeroport va vokzallarda mehmonlarni kutish zallarining ziyorat turizmi standartlariga javob berishi masalalarini hal etish zarur. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish omillaridan bo‘lgan axborot resurslarini jamlash, mamlakatda mavjud ma‘naviy va moddiy boyliklar tavsifini umumlashtirish, ziyorat turizmi bo‘yicha to‘liq ma‘lumot beruvchi integratsion elektron platformani yaratish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytganda yurtimizning qadamjo joylariga ichki va xorijiy sayohlarni jalb qilish va O‘zbekiston turizmiga kiritilgan har bir investitsiya aholi va xorijiy turistlar uchun zamonaviy turistik hududlar, kvartallarni shakllantirishga, yuqori va sifatli xizmatlarning xorijdan kirib kelishiga, mutaxassis kadrlarni ko‘payishiga bo‘sh ish o‘rinlarini yaratilishi va boshqa ijobiy yutuqlarni qo‘lga kiritishimiz va ziyorat turizmini shakllantirish uchun turtki bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://uzbektourism.uz/uz/research>(29.05.2019y.)
2. «Innovatsion loyixalarni va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rahbatlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2008.16.07.
3. Draker P.F. Innovastii i predprinimatelstvo. M., 1992. 234 s.
4. Innovatsionnyy menedjment / Pod red. S.D.Ilenkovoy. – M.: Banki i birji; YuNITI, 1997. – 327 s.
5. Novikov V.S. Innovastii v turizme. M.: IЦ. “Akademiya”. 2007.208 s.
6. Sindorov Sh.E. O‘zbekiston respublikasining tadbirkorlik faoliyatida innovatsion jarayonlardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmi. Nom.disser. 2010



ДАВЛАТ БЮДЖЕТИ ХАРАЖАТЛАРИ КЕСИМИДА БЮДЖЕТ МАБЛАҒЛАРИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Эшназаров Суннатилло Тўлқин ўғли
Тошкент тўқимачилик ва енгил
саноат институти мустақил изланувчиси
Телефон: +998933882282
sunnat.eshnazarov@inbox.ru

АННОТАЦИЯ: Ушбу мақолада давлат бюджети харажатлари кесимида бюджет маблағларини назорат қилиш хусусиятлари келтирилган ва бюджетдан ажратилган маблағлардан фойдаланишнинг тежамлилигини ва мақсадга мувофиқлигини баҳолаш имконини берувчи кўрсаткичларни ишлаб чиқиш зарурлиги ўрганилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: бюджет назорати, бюджет маблағлари, давлат маҳаллий бюджет, лимит, назорат методикасини, молиявий мустақиллик.

Давлат молия тизимида олиб борилаётган тизимли ислохатларда бюджет назорати тизимини самарали шакллантириш ва уни ривожлантириб бориш, бюджет маблағларини сарфланишини мақсадлилигини ва самарадоригини оширишни такомиллаштиришни назарда тутати.

Давлатнинг бюджет соҳаси республика даражада ҳам, маҳаллий даражада ҳам назорат билан тўлиқ қамраб олинмаган, айти пайтда текширувлар ва тафтишлар сони ҳисоботларда кўп минглабни ташкил этади. Сўнги йиллар мобайнида юзага келган бюджет назоратини ўтказиш амалиёти назоратнинг бир хил объектларини текшириш ва тафтиш қилишнинг такрорланиши билан тавсифланади, бу бюджет маблағлари олувчилари – ташкилотлар ва муассасаларнинг адолатли шикоятларига сабаб бўлади. Ушбу муаммо ўз ечимини талаб қилади, чунки бюджет маблағларидан мақсадли фойдаланишни назорат қилиш бюджет назоратининг асосий предмети ҳисобланади. Давлат бюджет назорати тизими давлат бюджет назоратини ташкил этишнинг асосий қуйидаги ташкилий, динамиклик, ҳаракатларнинг комплекслиги ва тизимлилик тамойилларини ҳисобга олган ҳолда қурилади.

Давлат бюджет назорати тизимини шакллантиришда республика бюджетининг асосий тақсимловчилари томонидан ўтказиладиган идоравий назорат аудит институти ҳам мавжуд бўлиб, у муҳим роль ўйнаши билан бир қаторда унинг камчиликлари ҳам мавжуд бўлиб, у жорий ва якуний назоратни ўтказиш бўйича ваколатларни тақсимлаш тамойилига риоя қилмайди бу эса назоратнинг таъсирчанлигини камайтиради. Ушбу институт ҳам такомиллаштирилишни талаб этади.

Давлат бюджет назоратининг устувор вазифаси бюджет ресурсларидан фойдаланишнинг қонунийлигини, мақсадга мувофиқлигини, тўлиқлигини, ўз вақтидалигини ва мақсадли йўналишини, бюджет харажатларининг ижросининг ва мақсадли йўналишини назорат қилишдан иборат ҳисобланади.

Шу нуқтаи назардан давлат бюджети харажатларини таҳлил қилиш давлат бюджет назорати тизимининг ҳолати ва натижадорлиги ҳақида фикр юритиш имкониятини беради.

Жумладан, 2020 йилда 6 944 та бюджет ташкилотларининг 4 729 тасида 246,0 млрд сўм миқдоридаги бюджет интизоми бузиш, пул ва товар моддий бойликлар камомади аниқланган. Жумладан, Халқ таълими вазирлиги тизимида ўтказилган 709 та назорат тадбирларининг 573 тасида 96,6 млрд сўм миқдорида, Соғлиқни сақлаш вазирлиги тизимида 723 та назорат тадбирларининг 523 тасида 40 млрд сўм миқдорида, Мактабгача таълим вазирлиги тизимида 327 та назорат тадбирларининг 270 тасида 16,7 млрд сўм миқдорида қонунбузилиш ҳолатлари аниқланган. Бундан ташқари 2020 йил давомида 364 мингта 46,9 трлн. сўмлик шартномалар бюджет ташкилотлари ва бюджет маблағлари олувчиларига тўғрилаш учун қайтарилган ва 6414,0 млрд. сўмни мақсадсиз ва лимитдан ортиқ сарфланиши олди олинган. Бюджет ташкилотлари ва бюджет маблағлари олувчиларининг тўлов ҳужжатлари (топшириқномалари) дастлабки ва жорий назорат ўтказилиши натижасида жами 102448,0 млрд. сўм маблағларни мақсадсиз сарфланишини олди олинган.

Бу ҳолатлар давлат молиявий назоратида тизимли камчиликлар борлигидан далолат беради.



Бу эса ўз навбатида бюджет назоратини ўтказиш жараёнининг муҳим қисми ҳисобланган назорат методикасини ва тартиботларини такомиллаштиришни талаб этади.

Бюджет назоратини ўтказиш тизими бюджет назоратининг барча объектлари учун бирхил бўлмаслиги керак. Бюджет назоратининг самарадорлигига фақат объектлар назоратини ўтказиш махсус усулларининг ишлаб чиқилган тизими фаолиятнинг турли соҳалари (таълим, соғлиқни сақлаш, саноат, иқтисодиёт ва ҳ.к.) бюджет муассасалари ва ташкилотлари молиявий-хўжалик фаолиятининг ўзига хос жиҳатини ҳисобга олган ҳолда тузилган тақдирда эришилади.

Давлат бюджети назорати тизимининг услубий базасини ишлаб чиқишда назорат қилишнинг иқтисодий тамойилларига амал қилиш мақсадга мувофиқдир. Жумладан, ушбу тамойиллар бўйича қилинган хулоса бюджет назорати тизими самарадорлиги даражасини аниқлашга ёрдам беради. Бунга бюджет маблағларидан фойдаланишни таҳлил қилиш ва назорат қилишни махсус методикаси хизмат қилиши лозим. Масалан, назорат қилиш жараёнида бюджетдан ажратилган маблағлардан фойдаланишнинг тежамлилигини ва мақсадга мувофиқлигини баҳолаш имконини берувчи кўрсаткичларни ишлаб чиқиш зарур.

Бюджет маблағларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишга йўналтирилган барча тадбирлар бюджетнинг молиявий мустақиллигини таъминлаш мақсадини кўзлаши керак. Давлат бюджет назорати тизими биринчи навбатда бюджет маблағларини мақсадли ҳамд тежамли сарфлашга йўналтирилган бўлиши керак. Давлат бюджет назоратининг самарали тизими уни ташкил этишнинг институционал, иқтисодий, ташкилий-функционал ва ахлоқий тамойилларини ҳисобга олган ҳолда қурилиши керак. Бундай тизимни шакллантириш уни оптималлаштиришнинг асосий йўналишларини ишлаб чиқишни назарда тутати.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Digital Spillover - Oxford Economics <https://www.oxfordeconomics.com>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сон Фармонида 15а-илоvasи .
3. Одил Олимжонов. Рақамли технологиялар ва уларни ўзбекистон молия соҳасига жорий этиш истиқболлари. Ж: Иқтисодиёт: Таҳлиллар ва прогнозлар №4 (14), 2021. 106 б.
4. Эшназаров Т.Ш. Ўзбекистон Республикасида Ҳазначилик тизими асослари. Тошкент. Иқтисод-молия. 2012.
5. Мансуров, М. (2022). МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ КАЗНАЧЕЙСКОГО ИСПОЛНЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА. Экономика и образование, 23(2), 194–199. извлечено от <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/453>



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI VA MUAMMOLARI

Saidrasulov Ibrohim Ixtiyor o'g'li

TDIU davlat moliyasi va xalqaro

moliya II bosqich magistranti

Telefon: +998917939933

saidrasulovibrohim@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish holati va darajasini aniqlash hamda uning rivojlangan sug'urta bozorlari darajasiga yetish uchun talab qilinadigan rivojlanish tezligini bilan birga, bozorning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan holatlar va ularni bartaraf etgan holda qamrovini kengaytirish, potensial sug'urtalanuvchilar ishonchini ta'minlash uchun amalga oshirish talab etiladigan tadbirlarni aniqlashdan iborat.

Kalit so'zlar: “Sug'urta”, “o'zaro sug'urta”, “takaful sug'urta”, “an'anaviy sug'urta”.

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish davom etayotgan va ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatining ko'lami keskin darajada oshib borayotganligi sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni yanada orttirmoqda. Ushbu holat o'z navbatida, sug'urta faoliyati va sug'urta bozorini rivojlantirish, buning uchun esa uning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, sug'urtalashning yangicha shakllarini amalga kiritishni taqozo etmoqda. O'zbekistonda sug'urta tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishga, istiqbolda xalqaro sug'urta bozorlarida mustahkam o'rin egallashiga erishish yo'lida davlatning tashabbuskorligida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Respublika iqtisodiy-siyosiy hayotining barcha jabhalarida bugungi kunda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlar iqtisodiyot moliya tizimining tarkibiy qismi hisoblangan sug'urta sohasining roli oshib borishi uchun obyektiv shart-sharoitlarni yaratmoqda. Yaqin 2019-yildan buyon yangi tahrirdagi “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonunning hamda turli me'yoriy hujjatlarning qabul qilinganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining to'g'ridan to'g'ri sug'urta sohasiga taalluqli 2 ta qarori (2019-yil 2-avgustdagi “O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida” va 2021-yil 23-oktabrdagi “Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida” va Vazirlar mahkamasining o'nga yaqin qarorlari qabul qilinganligi ushbu sohaga bo'lgan e'tiborning qay darajada ekanligini ko'rsatib turibdi. Ammo, amalga oshirilgan bunday chora-tadbirlar sug'urta bozorida keskin o'zgarishlar qilish va uning jadal kengayishini ta'minlash uchun yetarli emasligini ko'rsatmoqda. O'zbekistonda ko'p sondagi potensial sug'urtalanuvchilarda sug'urta kompaniyalariga nisbatan ishonchsizlik uzoq yillardan beri davom etmoqda. Buning asosiy sababi sug'urta hodisasi yuz berganda ko'rilgan zararni hech qanday qiyinchilik va to'siqlarsiz to'lab berish tizimining yaratilmaganligidir. Sug'urta iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash va investitsiyaviy manba sifatida xizmat qilishi hamda aholini ijtimoiy himoyasini ta'minlashi bilan yetakchi tarmoq darajasiga ko'tarilishi uchun davlatning tashabbuskorligi hamda ushbu sohani ilmiy jihatdan doimiy ravishda o'rganish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Baratova D. O'zbekistonda sug'urta bozorining rivojlanish ko'rsatkichlari va aholiga xizmat ko'rsatishdagi o'rni. //Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar, №5 2017-y.
 2. Toshnazarova L. O'zbekiston sug'urta bozorida raqobatni rivojlantirish Yo'llari. //Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar, №4 2021-y.
 3. Umirov A.T. O'zbekiston sug'urta bozorida raqobat muhitining xorij holati va uning tahlili.// Iqtisodiyot va ta'lim, №1 2020-y.
- Qo'shimcha adabiyotlar
4. Arobiddin T. “O'zbekistonda sug'urta bozorini isloh qilish va uni jadal rivojlantirishni ta'minlash masalalari”. //UzBridge elektron jurnali.№1-son, 2020 y.
 5. Qonunchilik hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2021-y. 07/21/5265/0992-son. Internet saytlari
 6. <http://www.natlib.uz> (O'zbekiston Milliy kutubxonasi)
 7. <http://www.dbpia.co.kr> (K R Fanlar Akademiyasining talabalar uchun maxsus sayti)



OPERATIONAL RISK MANAGEMENT IN UZBEKISTAN'S DIGITAL BANKING ECOSYSTEM, ITS ISSUES, AND SOLUTIONS.

Rabbimov Jakhongir Eshboyevich
Senior Risk Management Officer
at “KDB Bank Uzbekistan” JSC
rabbimov@outlook.com
+998901188340

Annotation

Operational risk management is an essential aspect of the banking industry, especially in the digital banking ecosystem. In Uzbekistan, digital banking has become increasingly popular, and it has resulted in new challenges and risks that require appropriate risk management strategies. This thesis examines the implementation of operational risk management in the digital banking ecosystem in Uzbekistan, its issues, and solutions.

Keywords

Ecosystem, Risk Management, Operational Risk, Digital Banking, Basel committee, FinTech, IT Security, Retail Banking

Operational risk management has evolved over time, so let's take a look firstly at its history and stages. Operational risk management is a process wherein banks identify, measure, monitor, and control the risks that arise from various operational processes within the bank. These risks include technological risks, human errors, frauds, and compliance failures. The concept of operational risk management gained significant attention in the banking industry after the financial crises of the 1990s. As the banking industry evolved and became more complex, banks faced numerous operational risks that affected their financial stability and reputation. This led to the development of operational risk management frameworks.

In 2004, the Basel Committee on Banking Supervision, a global banking regulatory body, issued the Basel II Accord, which provided standardized rules and principles for banks to manage operational risk. The Basel II Accord required banks to implement sound risk management practices and ensure that they have adequate capital reserves to cover potential losses from operational risks.

In 2017, the Basel Committee added a new standard for operational risk management called the "Standardized Measurement Approach," which requires banks to take a more quantitative and data-driven approach to operational risk management.

Today, banks consider operational risk management as an integral part of their overall risk management strategy, with many banks having dedicated departments and personnel to oversee operational risks. Operational risk management is also gaining importance due to the increased use of technology and digital platforms in the banking sector, which poses new operational risks that need to be managed effectively to ensure continued financial stability and customer confidence.

A few lines on the digital ecosystem of banks over the past decades.

Banks' digital ecosystem has undergone significant changes over the years, with the rise of new technologies and the increasing adoption of digital solutions. Banks have been at the forefront of digital innovation, seeking to improve the customer experience and operational efficiency.

The early 2000s saw the advent of online banking, which offered customers the convenience of accessing their accounts and conducting transactions online. Banks developed their websites to include features such as bill payment, account transfers, and credit card applications. This made it easier for customers to manage their finances from the comfort of their homes.

The advent of smartphones and mobile technology in the late 2000s transformed the digital ecosystem of banks, as they began to develop mobile apps that allowed customers to carry out banking transactions on their phones. In 2010, Square, a mobile payments company, was launched, which allowed small businesses to accept credit card payments using their smartphones. This paved the way for a new era of digital commerce, as mobile payment solutions became increasingly popular.

With the growing popularity of digital solutions, banks also started investing in fintech startups, partnering with them to develop innovative products and services. This led to the emergence of open banking, which allowed fintech companies and third-party developers to access bank data through APIs (Application Programming Interfaces).

The rise of blockchain technology also had a significant impact on banks' digital ecosystem. Blockchain technology offers a secure and transparent way to conduct financial transactions without intermediaries. Banks began to explore blockchain technology and experimented with its



use in cross-border payments and trade finance. Today, the digital ecosystem of banks is constantly evolving with the advent of new technologies such as artificial intelligence, machine learning, and big data analytics. These technologies are enabling banks to enhance their customer experience and improve their operational efficiency in ways that were previously not possible.

The digital banking ecosystem in Uzbekistan comprises various digital services such as online banking, mobile banking, and other digital channels that enable customers to perform banking transactions without a physical presence. The Uzbek financial market is witnessing the expansion of ecosystem networks, such as TBC(Payme), Anorbank, and Uzum ecosystems. But, in ecosystem, banks face several operational risks, such as cyber-attacks, system failures, fraudulent activities, and inadequate regulatory compliance. These risks can cause reputational damage, financial losses, legal complications, and loss of customer trust. Therefore, operational risk management is critical to minimize these risks and ensure the smooth functioning of digital banking services.

One of the significant issues in operational risk management in the digital banking ecosystem in Uzbekistan is the lack of awareness among customers about the risks associated with digital transactions. Most customers have a limited understanding of cyber security, data protection, and fraud prevention. This lack of awareness makes them vulnerable to cybercriminals, who can exploit their personal and financial information. To address this issue, banks can develop educational programs and awareness campaigns to educate customers about the risks and best practices for secure digital transactions. This will improve customer trust and reduce the risks associated with digital banking.

Another significant issue is the lack of appropriate risk management frameworks and policies. In Uzbekistan, some banks do not have well-defined operational risk management frameworks, which leads to ineffective risk mitigation and management. Banks must develop comprehensive operational risk management frameworks that outline risk identification, assessment, monitoring, and reporting processes. A well-defined framework will help banks identify and mitigate risks effectively, thus reducing the potential for losses and reputational damage.

Some of our banks are successfully implementing and automating Risk Management systems. The Risk Management technology will automate the bank's risk management business, enabling it to become more efficient, whilst managing all types of risk including credit, market, operational, liquidity and interest rate.

Technical failures and system breakdowns are other operational risks that banks face in the digital banking ecosystem. These failures can lead to loss of data, system downtime, and transaction failures, causing inconvenience to customers and financial losses to banks. To mitigate these risks, banks must adopt robust and resilient IT infrastructure and systems, conduct regular maintenance and testing, and implement suitable backup and recovery solutions to ensure business continuity.

Fraudulent activities, such as phishing, social engineering, and identity theft, are prevalent in the digital banking ecosystem. Fraudsters use sophisticated techniques to steal customer information, and banks must implement strong authentication and fraud prevention measures to mitigate these risks. Banks can implement multi-factor authentication, fraud detection systems, and customer education programs to prevent fraud and protect customer data.

In conclusion, operational risk management is critical to the success of digital banking services in Uzbekistan. Banks must develop comprehensive risk management frameworks, adopt robust IT systems, educate customers about security risks, and implement fraud prevention measures to mitigate operational risks effectively. By doing so, banks can ensure the safety and security of digital transactions, prevent financial losses, and protect their reputation.

REFERENCES

1. Systemic risk in banking ecosystems Andrew G. Haldane & Robert M. May <https://users.physics.ox.ac.uk/~Foot/Phynance/nature09659.pdf>
2. Risk Management in Banking. <https://www.metricstream.com/risk-management-in-banking.html>
3. Operational Resilience in Digital Payments: Experiences and Issues in: IMF Working Papers Volume 2021 Issue 288 (2021). <https://www.elibrary.imf.org/view/journals/001/2021/288/article-A001-en.xml>
4. Banking on growth, but challenged to manage risks in a new coordinated way. <https://www.pwc.com/us/en/services/consulting/cybersecurity-risk-regulatory/library/global-risk-survey/banking-capital-markets-risk.html>
5. https://cbu.uz/oz/press_center/news/436810/?sphrase_id=48893
6. Dyachenko O. 2018. Finansovaya ekosistema: vse v odnom. Natsionalniy bankovski jurnál (NBJ). 2018.



MUTLAQ USTUNLIK NAZARIYASI

Ataxanova Saida Mirzabekovna
Ma'mun Universiteti NTM “Ijtimoiy
gumanitar fanlar” fakulteti “Iqtisodiyot va
buxgalteriya hisobi” kafedrasida katta o'qituvchisi

Mutlaq ustunlik - bu ishlab chiqaruvchining raqobatchilarga qaraganda bir xil xarajat evaziga ko'proq miqdorda yoki bir xil miqdordagi tovar yoki xizmatni kamroq xarajat bilan ta'minlashi.

Adam Smit tomonidan ishlab chiqilgan kontseptsiya, mutlaq ustunlik turli xil mutlaq afzalliklarga ega bo'lgan turli xil tovarlarni ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi savdodan katta daromad olish uchun asos bo'lishi mumkin.

Ixtisoslashuv, mehnat taqsimoti va savdo orqali turli mutlaq ustunlikka ega bo'lgan ishlab chiqaruvchilar har doim alohida ishlab chiqarish va iste'mol qilishdan ko'ra ko'proq foyda olishlari mumkin.

Mutlaq ustunlikni tushunish. Mutlaq ustunlik kontseptsiyasini 18-asr iqtisodchisi Adam Smit o'zining “Xalqlar boyligi” kitobida mamlakatlar boshqa mamlakatlarga qaraganda samaraliroq ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish va eksport qilishga ixtisoslashgan holda savdodan qanday foyda olishini ko'rsatish uchun ishlab chiqilgan. Mutlaq ustunlikka ega bo'lgan davlatlar ma'lum bir tovar yoki xizmatni ishlab chiqarish va sotishga ixtisoslashishga qaror qilishlari va ishlab chiqarilgan mablag'larni boshqa mamlakatlardan tovar va xizmatlar sotib olish uchun ishlatishlari mumkin.

Smitning ta'kidlashicha, ularning har biri mutlaq ustunlikka ega bo'lgan mahsulotlarga ixtisoslashgan bo'lib, so'ngra mahsulot savdosi barcha mamlakatlarda boshqa davlatlarga nisbatan mutlaq ustunlikka ega bo'lgan kamida bitta mahsulotga ega bo'lsa, barcha mamlakatlarning ahvolini yaxshilashi mumkin.

Mutlaq ustunlik nima uchun jismoniy shaxslar, korxonalar va mamlakatlar uchun bir-biri bilan savdo qilish mantiqiy ekanligini izohlaydi. Ularning har biri ma'lum tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda afzalliklarga ega bo'lganligi sababli, ikkala tashkilot ham ayirboshlashdan foyda olishlari mumkin.

Savdodan olingan bu o'zaro daromad Smitning ixtisoslashuvi haqidagi argumentning asosini tashkil qiladi hamda mehnat taqsimoti va keyingi savdo farovonlikning umumiy o'sishiga olib keladi, bundan hamma foyda ko'radi. Bu, Smitning fikricha, "Xalqlar boyligi" ning asosiy manbaidir.

Mutlaq ustunlik va qiyosiy ustunlikning farqi. Mutlaq ustunlikni qiyosiy ustunlik bilan solishtirish mumkin, ya'ni ishlab chiqaruvchi boshqa ishlab chiqaruvchiga qaraganda tovar yoki xizmatni ishlab chiqarish uchun arzonroq imkoniyatga ega. Imkoniyat xarajati - bu jismoniy shaxs, investor yoki biznes bir muqobilni boshqasiga tanlashda o'tkazib yuboradigan potentsial foyda hisoblanadi.

Mutlaq ustunlik har bir ishlab chiqaruvchi qandaydir tovar ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikka ega bo'lgan hollardagina ixtisoslashuv va savdodan aniq yutuqlarga olib keladi. Agar ishlab chiqaruvchida mutlaq ustunlik bo'lmasa, unda Adam Smitning argumenti qo'llanilishi shart emas.

Biroq, ishlab chiqaruvchi va uning savdo sheriklari, agar ular o'zlarining qiyosiy ustunliklariga asoslanib ixtisoslashgan bo'lsalar, savdodan daromad olishlari mumkin. Devid Rikardo o'zining "Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish tamoyillari to'g'risida" kitobida, agar mamlakat ko'p turdagi tovarlar savdosidan mutlaq ustunlikka ega bo'lsa ham, boshqa mamlakatlar bilan savdo qilishdan foyda ko'rishini mumkinligini ta'kidlagan.

Savdoning asosiy maqsadi mamlakatlar o'rtasidagi tovarlar va xizmatlar savdosini ko'paytirish, ular savdodan ko'proq foyda olishlari mumkin. Bu har doim iqtisodchilar va siyosatchilar tomonidan o'rganiladigan sohadir. Xalqaro savdo bilan bog'liq bir qancha tadqiqotlar xalqaro savdo rejasini va savdo orqali ko'proq foyda olishning turli usullarini tahlil qilishga harakat qilmoqda.

Nazariyalar orasida mutlaq ustunlik nazariyasi, qiyosiy ustunlik nazariyasi va Xeksher Orlin modeliga e'tibor qaratilib, xalqaro savdoning iqtisodiy ta'siri tahlil qilinadi.

Heckscher Ohlin modeli. Heckscher Ohlin modeli - Li-Kardoning qiyosiy ustunlik nazariyasi taklif qilmagan qiyosiy ustunlikning sababini aniqlash uchun Heckscher va Ohlin tomonidan ishlab chiqilgan modelidir. Bu intensivlik darajasi sifatida qaraladi va har bir mamlakatda turli darajadagi



ta'minlanganligi sababli, nisbatan samarali ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan mahsulotlar ham har xil bo'lishi tushuntiriladi. Boshqacha qilib aytganda, har bir mamlakat nisbatan yuqori darajadagi ishlab chiqarish omillaridan intensiv foydalanadigan mahsulotni ishlab chiqarishning imkoniyat tannarxi past bo'lganligi sababli nisbiy ustunlikka ega.

Ushbu model natijalari omillar ta'minlanishi teoremasini, omillar bahosini tenglashtirish teoremasini, - Stolper-Samuelson teoremasini, (Ry Lipzinski teoremasi bchinski teoremasini) va boshqalarni keltirib chiqaradi. Keyinchalik u xalqaro savdo nazariyasining asosiy nazariyasiga aylandi. Mann Leontief tadqiqotida (1947) Heckscher Ohlin modeli AQSHdagi real savdo holatiga empirik tahlil qilish uchun tatbiq etilgan, natijada modeldan mutlaqo teskari natija olingan. “Leontieff paradoksi” deb nomlangan bu hodisa yuqori kapital boylikka ega bo'lgan AQSH ko'proq mehnat talab qiladigan tovarlarni eksport qilishini va Leontyevning sanoat-sanoat tahlili natijasida kapitalni ko'p talab qiladigan tovarlarni import qilishini isbotladi. Leontef paradoksining sababini izohlash uchun ko'plab tadqiqotlar o'tkazildi va Heckscher - Ohlin teoremasi va Leontef paradoksini uyg'unlashtirishi mumkin bo'lgan bir nechta shartlar taklif qilindi.

Qiyosiy ustunlik, eksport va iqtisodiy o'sish bo'yicha oldingi tadqiqotlar. Savdo nazariyasiga ko'ra, qiyosiy ustunlik odatda tovarlarning nisbiy narxiga juda bog'liq bo'ladi. Jumladan oltingugurtdagi nisbiy narxlarni kuzatish oson emas. 1966 yilda Bela Balassa bu muammoni qiyosiy ustunlikda hal qildi. Balassa har bir mamlakat va har bir mahsulot uchun Oshkora Qiyosiy Ustunlikni (RCA, Balassa indeksi; B yoki undan pastroq) ishlab chiqdi va buni nisbiy resurslar ta'minotidagi farq qiyosiy ustunlikka sabab bo'ladi degan mantiq asosida amalga oshirdi.

Hozirgi qiyosiy ustunlik indeksi ma'lum bir mahsulot eksportining jahon umumiy eksport bozoridagi ulushi va ma'lum bir mamlakat eksportidagi bir xil o'ziga xos mahsulot ulushi o'rtasidagi nisbat sifatida hisoblanadi. U mahsulotning qiyosiy ustunligini baholash uchun keng qo'llaniladi va agar indeks qiymati 1 dan katta bo'lsa, qiyosiy ustunlik mavjud deb hisoblanadi. Bundan tashqari, hozirgi qiyosiy ustunlik indeksi mamlakatlar samaradorligini o'lchash uchun keng qo'llaniladi. U zaif tomonlarini ko'rib chiqish vositasiga aylanmoqda. BI tegishli adabiyotlarda munozarali bo'lib kelgan, chunki u tartibli yoki asosiy shartlarni taqdim etmaydi, ammo BI ma'lum bir mamlakatda muayyan mahsulotning qiyosiy ustunligini o'lchash uchun samarali vosita ekanligiga shubha yo'q.

Maykl Porter (Michael Porter, 1990), agar ma'lum bir mamlakatda ishlab chiqarilgan ma'lum mahsulotning BI qiymati ushbu 1 (2) dan oshsa, alohida holatda, bu mamlakat ushbu mahsulotni ishlab chiqarishda ustunlikka ega deb hisoblaydi. Bu natijalarga quyidagilar kiradi: Ariovich (1979), Reza (1983), Yeats (1985), Peterson (1988), Crafts (1989), Amity (1999) va Fertö, Imre & Hubbard, LJ (2003).

Bojnec (2001) tadqiqotiga ko'ra, Havrila va Gunawardana (2003) B, eng ko'p ishlatiladigan qiyosiy ustunlik indeksidir. Mavjud adabiyotlarda (Ariovich 1979, Reza 1983, Peterson 1988, Amity 1999, Fertö, Imer & Hubbard, L.J. 2003) munozarali qiyosiy ustunlik indeksi hali ham ma'lum bir mamlakatning muayyan mahsulot bo'yicha qiyosiy ustunligini o'lchashda foydali hisoblanadi.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 9-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2023

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000